



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qo'choqbo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67
e-mail: til_adabiyoti@mail.uz
web-sayt: www.tilvadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat ma'nosini nazorat qilmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'ayimlar taqdir qilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Biomassazaga, 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Sharti bosma tabaqi 8.0. shkalasiga garmatirasi. 10, 11 kepl. »ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosma-xonalarida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirbod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayrutiqa ... Adali 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komilik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostonant testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqolalar badiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir musharakligi	14
TAHLIL	
Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Xatolova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umid Shermatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usul	22
O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - behavo ma'naviy boylik	22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi - shoirning asl dardi	24
Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi	28
Iroda Xoligova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'ov Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahorov Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining musharakat jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofotoy Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohgul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'qitishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'liq lug'ati"dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lig' qalbar kuchlisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lektsiklasidagi o'zlashtirma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati	69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalaniishi	70
Dildora Yorbulovala. Hamza hakimizda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi	73
Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Humoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 1691-2689

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining

Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

kuchli ayollardir. Abdulla Qodiriy o'z asarlarida kuch-siz ayollarni tasvirlashdan ko'ra kuchli ayollarni tasvirlashga intilgan, chunki u o'zbek ayollarini ana shunday kuchli, matonatli bo'lishini orzu qilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qodiriy asarlaridagi ayollar obrazi va Cho'lpon, Hamza asarlaridagi ayollar obrazlari bir-biridan farqlidir. Negaki, Qodiriy asarlaridagi ayollar obrazida hurlik holatlari kuzatilsa, Cho'lpon va Hamza asarlaridagi ayollar obrazida ayollarga o'tkaziladigan zug'um ko'plab uchraydi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" asaridagi Zebi timsolini oydinlashtiramiz. Zebining illosizligi o'sha davr ayollari ekransizligi sifatida ochib beriladi. Zebi – hurkak ohu kabi go'zal va illosiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o'ylash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevil yashaydi. Razolat to'lib yotgan dunyoga muhabbat ko'zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go'zallik bilan kelishmaydi, go'dakday beg'ubor bo'lgani uchun ham bag'ri ifloslik va kirga to'la hayot uni sig'dirmaydi, hayotning shafqatsiz va badbo'y havosida uning nafasi bo'g'iladi va hayot uni ayovsiz taqdir hukmiga topshiradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" asarida ayol obrazi sifatida Maryamni ko'rishimiz mumkin. U ilmga tashna madaniyatli va ma'rifatlil ayol timsoli sifatida gavdalangan. Ushbu asarda ma'rifatlil insonning jaholat va g'afatlil zindonidagi fojiali taqdirini ko'rsatishni maqsad qilib olgan. Ushbu asar janrini Hamza "Turkiston maishatidan olingan qiz va kuyov fojiasi" deb ataydi. Dramaturg pyesaning dastlabki sahnasidayoq qahramonlar o'zlariga munosib bo'lmagan, ular qalbidagi muhabbat gullarini xazon qilishga tayyor bir muhitda yashayotganini ko'rsatadi.

Avloniyning "Advokatlik osonmi?" dramasiidagi ayol obrazi sifatida Mehriniso timsolini ko'rishimiz mum-

kin. Mehriniso – 32 yoshli ayol. Eridan jabrlangan ayol obrazi. Mehriniso jabrdiyda ayollar timsoli. Mehriniso eridan jabrlangan ayollarning ma'naviy timsoli sifatida yoritiladi. U yordam so'rab Davronbekning yoniga ke-ladi. O'n besh yildan beri zolim qo'lida majruhga aylangan ayol o'z haq-huquqi uchun, shu insondan ajrash uchun harakat qiladi.

Mehriniso ayadek o'sha davr ayollar timsolini boshqa asarlarda ham uchratishimiz tabiiy. Zebi timsolini keltirsak ham, bunga dalil bo'la oladi. Mehrinisodan ham, Zebidan ham inon-ixtiyor so'ralmay, turmushga berib yuboriladi. Bunda ularni xuddi bir hayvondek, quldek sotib yuborishgani inson qalbidagi g'atali hissiyot paydo qiladi. Zebidan ham, Mehrinisodan ham so'ramay taqdirini hal qilishadi, ular tanlagan taqdirida bu mushtiparlar jabr tortadi. Bu asarlar orqali ayollar erkinligi uchun harakat, ularning ixtiyorini o'ziga berish lozimligi jadidlar tomonidan ilgari suriladi.

Ayollarning erk-ozodligi, ilm-ma'rifatga qiziqishi, ota-onasi ra'yidan chiqolmay taqdir hukmiga bo'yin egishi asarlarda bir-biriga qarama-qarshi konflikt tarzda jadid adabiyoti mafkurasini yoritib bera oldi. Xususan, Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" asaridagi ayollar timsoli ham, Cho'lponning kichik-kichik hikoyalaridan tortib, katta janrdagi barcha asarlarida, barcha-barcha ma'rifatparvar ijodkorlar ijodida ayollar timsoli o'ziga xos mavzuga aylana oldi. O'sha davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ayollarni qul sifatida baholash, ayollarni nazir sifatida taqdim etish, ularni o'z erkidan, ilm-ma'rifatdan yiroq qilish holatlari ko'plab uchrab turishi jadid adabiyotida chinakam mavzuga aylandi.

Haqiqatan ham, ma'rifatparvarlarimiz o'z asarlari orqali ayollar ozodligi, erkinligi uchun kurash olib borishgani o'sha davr asarlaridan ko'zga tashlanib turadi. Bu esa hamma davrda ayollarga hurmat-e'tibor mavjud bo'lganligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirvaliyev S. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
3. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Navro'z, 2019.
4. Qodiriy A. Diyori Bakr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
5. Qodiriy A. Mehriniso chayan. – Toshkent: G'ulom nomidagi NMIU, 2017.
6. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Navro'z, 2018.

Emina ACHILOVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
2-kurs magistranti

O'TKIR HOSHI MOVNING "URUSHNING SO'NGGI QURBONI" HIKoyASIDA PSIXOLOGIK TASVIR

O'zbek adabiyotining taraqqiyotida, ayniqsa, prozachilik rivojida tanqili adib O'tkir Hoshimovning ham munosib hissasi bor. Uning yuzdan ortiq hikoy-

alari, o'nlab qissalari, millatimizning yaqin o'tmishi va bugungi hayotini bir murakkabliklari bilan tasvirlagan uchta romani nafaqat o'zbek kitobxonlari, balki ja-

hondagi ko'pgina adabiyot muxlislariga tanish. Tanikli adabiyotshunos U.Nomatov o'zining "Umidbaxsh tamoyillar" kitobida shunday yozgan edi: "Istiqloq yillarida sho'rolar davrida ijod qilgan ko'pgina yozuvchilar o'zlarining avval yaratgan asarlarini mustaqillik mafkurasini nuqtayi nazaridan qayta tahrir etishga majbur bo'ldilar. Ammo O'ltir Hoshimov asarlari bunday tahrirlarga ehtiyoj sezmad". Haqiqatan, O'ltir Hoshimov ilk ijodidan boshlab o'sha davrlarda panja orasidan qaralgan masala – millat ma'naviyatiga daxldor muammolarga diqqat qaratadi va yetuk ijodkor sifatida e'tirof etilgan paytlarida ham bu mavzu ijodining markaziy nuqtasi bo'ldi. Adib dastlabki yillarda o'z asarlarida, asosan, yoshlarning ma'naviy olamiga, ularning qiziqishlari-yu orzu-arnonlarini tasvirladi.

O'ltir Hoshimov olamning go'zalligi, insoniyatning shu go'zallikka munosabatini, gumanizm mohiyati va qadr-qimmatini butun ijodiy badiiy to'qimalariga yoyilib ketgan milliy ma'naviyat ifodasiga singdiradi. Odamlarning ruhiy barkamolligi, euzu maqsadi haqida falsafiy teran tasvir yo'nalishtirib adib dunyoqarashi va nazariy tasavvuri kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida xoh u kichik janr bo'lsin, xoh yirik hajmli badiiy polотно bo'lsin, e'tiqod, oqibat va mehr-muhabbat tushunchalari talqini markaziy chiziqni tashkil etadi. To'g'rirog'i, sog'lom e'tiqod qahramon xarakterining uzviy qismiga aylanadi. Tasvirdagi ravshanlik esa aynan kichikdan kattaga, xususiy hodisalardan hayotiy umumlashmalarga intilishga moyillikning kuchligi bilan izohlanadi. O'z navbatida, yozuvchi go'yaviy munosabati xalq ruhiyatini, milliy urf-odatlarini atroflicha tahlil qilish vositasida oydinlashadi.

Professor O.Sharafiddinov O'.Hoshimov asarlarini jozibador qilgan, ularga o'ziga xos badiiy tarovat baxsh etgan ikki xususiyatini ko'rsatadi. Ulardan birinchi, adib badiiy asarni yengil targ'ibotchisiga aylantirmasligi bo'lsa, ikkinchisi, asardan kelib chiqadigan muammolarning hammasi eng murakkab savollarga javob izlash kishini hayajonga soluvchi yuksak badiiy shakllarda amalga oshirilishidir. Tanikli adabiyotshunosning mulohazalarini to'ldirgan holda aytish mumkin, lirik hissiyot ko'lami adib izlanishlarining tabiiyligini, uning yuzaki bayon, sxematik ifodadan xoli bo'lishini ta'minlaydi. Shaklning o'zgaruvchan tabiati ehtirosning yuqori pardalarda berilishi bilan uyg'unlashib O'.Hoshimov ijodining badiiy yaxlitligini ta'minlaydi. O'tgan asrning 70-yillariga kelib adib izlanishlarida ijtimoiy munosabatlarni tahlil teranlasha boshladi. Bu teranlik "notariy" shaxslar tasviri-dan oddiy insoniy munosabatlari ifodasiga o'tish orqali quyuvqlashgan. Endi ijodkor odamlarning jamiyatga ta'sirini emas, balki jamiyatning inson turmush tarziga bosimini ijod madaniyati markaziga ko'tardi. Ayni paytda milliylik belgilari "ko'zga ko'rinmas a'zolar"da ko'proq uyg'unlashishini e'tiborga olsak, yozuvchi pozit-siyasining xalqchilik nuqtalari bir qadar ayon bo'ladi. Insoniy munosabatlar birligi, optimistik kayfiyat belgilari

O'.Hoshimovning barcha asarlarida qizil ip bo'lib o'tadi. Jumladan, 1972-yilda yaratilgan "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi lirik ifoda va epik ko'lam muhtarakligini aks ettiradi. Aslida ruhiy hissiyot ikki usul: sog'lom e'tiqod va ijtimoiy tartibot darajasi birligiga borib taqaladi. Bu rishtalardan biri uzilsa-chi? Mazkur holatda odamlar hayoti butunlay izdan chiqadi. Shu nuqtayi nazaridan adib millatning oliy idealarini turfa nuqtalarda namoyon qilishga urinadi. O'z navbatida, milliy ruh, xarakter mukammalligi mezon o'lchovi darajasini ifodalaydi. Hikoya ikkinchi jahon urushining insoniyat turmush tarziga, jumladan, millat psixologiyasiga ta'sirini aks ettiradi. Yangicha aspektida yoritilgan asarda katta axloqiy-falsafiy muammoning gumanistik mohiyati badiiy niyatni yuzatga chiqaradi. Ayniqsa, xarakter mantiq'i, qahramon ruhiyatini yoritish vositasida adib teran ijtimoiy umumlasmalar yaratadi. Mazkur xususiyatlar – ichki nutq, xatti-harakat, situatsiyalar, badiiy shtrixlar, hayotiy tafsilotlar birligi tarzida epik makon kategoriyasidan oziqlanadi. Asosiy qahramon – Umri xolaning ikki o'g'li bor. Kattasi Shoikrom o'z oilasi bilan alohida yashaydi. Kichik o'g'li Shone'mat sil dardiga chalingan. Tabib unga qo'y suti buyurgan, lekin ona o'z farzandiga sut olib berishga qodir emas. Shoikromning topgan-tulgani ham o'z oilasidan ortmaydi. Ustiga-ustak erta bahorda xonadon koriga yarab turgan sigir ham o'g'irlab ketilgan. Voqealar dramatismini XX asrning 45-yili ko'klamida sodir bo'ladi. Sho'riik onaning qalbi bolaga sut topib berish istagi bilan yonadi. Hatto bu borada mavjud imkonsizlik, nochor ahvol ayolning o'g'irlilik qilishiga ham monelik etmaydi. To'g'ri, katta farzand qulupnayidan so'rab olinsa ham bo'lardi, lekin, birinchiidan, qaymona kelinidan imyanan. Ikkinchiidan, o'zaro munosabatlar ham risoladagiday emas. Chunki bir gal kelin Umri xolaga "bobillab bergan". Asar davomida kuzatiladigan tushkun kayfiyat ustuvorligi alamzada o'g'irlilik qarori yordamida fojiaiy nuqtaga ko'tariladi. Shu o'rinda, Umri xola va Shoikrom xatti-harakatlaridagi o'xshashlik kitobxonni ajablantirmaydi. Ona o'g'irlilik qilish katta gunoh ekanini o'ylab ko'maganidek, farzand ham bir-rovning joniga qasd qilish salbiy illat ekanini tushunishni istamaydi. Asosiy aybdor – urush va uning salbiy asoratlari. Shu o'rinda fransuz mutafakkiri D.Didronning "xarakter tipik sharoit bilan belgilanadi", deya ta'kidlagan konseptual fikri haqqoniylik oydinlashadi. Darvoqe, tipik manzara jamiyat ma'naviy mezonlariga ziddlik kasb etsa, ulkan fojialar keltirib chiqaradi. Shu tarzda ijodkorning urush va uning oqibatlariga ruhiy munosabati shakllanadi. Muallif asar to'qimalariga singib ketgan fojiaiy ruhiy yuqori bosimda tutib turadi. Mazkur holat goh badiiy chizgilar, goh nutqiy ritorika vositasida umumlashtiradi. Hikoyada adibning qahramonlarga xayrixohligi har bir nuqtada sezilib turadi. Ayniqsa, ona qiyofasini shakllantirishda yozuvchi lirizm oqimini bir qadar kuchaytiradi. Muqaddimadanoq "rangi uniqqan chit ko'yak nimcha kiygan" Umri xolaning mahzun hola-

ti kitobxon tasavvurida tragik hissiyot, tushkun kayfiyat uyg'otadi. Sentimental kayfiyat quyuqlik lirik ifodaning ustuvorligini ko'rtiradi.

Inson ruhiy dunyosining adabiyotdagi tasviri, ifodasi qonuniyatlarini tekshirish bugunning dolzarb ilmiy-estetik muammosi hisoblanadi. Kuzatishlar ko'rsatadiki, inson ruhiyati, ichki olamidagi o'ziga xoslik hamisha ham tashqi dunyoga bog'liq bo'la olmaydi. Inson ko'nglida kechayotgan hissiyotlar, orzu-maqсадlar, intilishlar atrofida muhitga kamdan kam holatlarda to'g'ri keladi. To'g'ri, inson ruhiyatidagi tadrjiylik tashqi muhit vositasida yuz beradi. Odamning ruhiy tushkunligi ham,

ko'tarinkiligi ham ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga keladi. Ko'pincha, insonning o'zi o'z ruhiy holatini to'g'ri tushunish yoki izohlashga ojizlik qiladi.

O'tkir Hoshimov hikoyalari qahramonlar ruhiyatidagi talotumlar, asosan, ijtimoiy turmush ta'sirida yuzaga kelganligi aks ettirilgan. O'tkir Hoshimov hikoyalari qahramonlari ko'proq kuchli ruhiy g'alayonlar, cheksiz ma'naviy tanazzullar iskanjasi aks ettiriladi. Asarlarida hayotning achchiq zarbalari, turmushning ayovsiz sinovlari natijasida shaxsi, ma'naviy olami imtihondan o'tayotgan odamlar hayotini ko'rsatish orqali adib milliy adabiyotda qahramonlar silsilasini yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 27-bet.
2. Sharafiddinov O. El ardodagi adib. "Ikki eshik orasi" romanining 7-nashriga so'nggi so'z. – Toshkent: Fan, 2000. – 136-bet.
3. Дидро Д. Избранные произведения. – Москва: Государственное издательство Художественной литературы, 1951. – С.206.
4. Hoshimov O'. Tanlangan asarlar IV. Roman, qissa, hikoyalar, hajviyalar, tarjimalar, o'yalar. – Toshkent: Sharq, 2011.

Musajan TADJIBAYEV,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti

GERMENEVTIKADA PSIXOLOGIK TALQIN MUAMMOLARI

Germenevtikaning muhim in'ikosi va ahamiyati shundan iboratki, u dunyo, borlik, hayot o'tkinchligini, uning qayta va qayta yangi o'zgarishlarga to'la ekanligini o'qitish, tushuntirish, isbotlash va uning metodlarini yaratish barobarida insonga optimizm, cheksiz umidvorlik baxsh etadi. U barchaga har bir kun, har bir onda buyuk o'zgarishlar, yangilanishlar kutib yashashni o'rganishni uqtiradi.

Germenevtika uchun butun borlik matndan iborat va matn – cheksiz potensial manba. U xuddi o'zida cheksiz energiya, g'oya, fikr va, binobarin, cheksiz sirlarni mujassam qilgan borliqning aksidan iborat bo'ladi. Har bir tugallangan matn – o'zicha bir dunyo. Vaholanki, borliqdagi har mavjudot va narsa avtonom matn demakdir. Bu – matn fenomenologiyasi.

Agar biror matnни rudaga qiyoslasak, inson eritish orqali undan metall oladi. Bir tonna metall dan yuz ming xil material yasash mumkin bo'ladi. Bu detallar agregatga aylanib ishga tushganda, millionlab narsa-hodisalar yasadil, faoliyat bajaradi. Bu hodisa cheksiz, bir-oq barcha cheksizliklarning manbai o'sha ruda bo'lib qolaveradi. Toki barcha detallar bir kun korroziyaga uchrab, yana o'sha rudaga, tuproqqa aylanadi.

Biz matnning potensial kuchini e'tirof etdik, unga ko'ra so'z vositasida yaratilgan matn muhtasir harakatda. Zero so'z matni xuddi ko'mir yoki ruda olov, energiya chiqargani kabi o'zidan muttasil rango-rang g'oyalarni yolg'itilantirib turadi. Bu yolg'itil butun insoniyatga yuqadi.

Vaholanki, bunday holatda har bir inson undan o'zicha yangi, o'ziga xos g'oya ibtidosini asoslantirishi mumkin. Germenevtikada sillogizmining qudrati, eng avvalo, shu yerda. Bir g'oya minglab, balki millionlab g'oyalarga turtki, ulgi beradiki, bu xuddi Nyutonning butun olam tortishish qonunini yoki olovdan energiya olish, elektr toki yoki velosipedning kashf qilinishini eslatadi. Zotan mana shunday hozirgi davrda oddiy hodisaga aylangan narsalar bir vaqtlar insoniyatning borlik haqidagi dunyoqarashi tamomila o'zgarishiga olib kelgan. Minglab yuraklarda olovlangan g'oya ularga cheksiz optimizm, kelajakka, kelajak baxtga ishonch tuyg'usini uyg'otadi va uni olovlantiradi.

Nazaringizda xuddi sizni keyingi mayulushda yangi bir inson siymosidagi yoki yangi bir voqea mundarijasidagi ulkan baxt kutib turganga o'xshaydi, tuyuladi. Uni siz aniq ko'rganday bo'lasiz, uning borligini his qilasiz, ich-ichingizdan tuyasiz. Xuddi shu holat sizga ulkan, bir umrlik baxtga ishonch tuyg'usini taqdim qiladi. Mana shu paytda siz turmushning mayda ikr-chikirlarini unutasiz, atrofga qalib va idrok shu'la sochgan ulkan tushunish yolg'itilgan yangi nazar bilan qaraysiz. Bu nazar sizning qalbingizda ulkan go'zallik yolg'ini bilan burkadi; hamma narsa sizga go'zal, mutanosib, sizning didingizga parallel muvofiq, ma'noli, mazmunli, eng muhimi sehri bo'lib ko'rinadi va siz tomonga nur yo'llaydi. Bu nur xuddi sizning oldingizda yangi, jannatli baxt dunyosini ochganday bo'ladi. Sizni u yerda baxtli, sizni